

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

NARZIKULOVA MASHHURA FARXOD QIZI

**O‘RTA ZARAFSHON VODIYSI KARTOSHKAGA AGROTSENOZLARI
FITONEMATODALARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Narzikulova Mashhura Farxod qizi

O‘rta Zarafshon vodiysi kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari..... 3

Нарзикулова Машхура Фарход қизи

Фитонематоды картофельных агроценозов Средне-Зарафшанской долины..... 21

Narzikulova Mashhura Farxod qizi

Phytonematodes of potato agrocnoses in the middle Zarafshan Valley.. 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**ZOOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.52.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NARZIKULOVA MASHHURA FARXOD QIZI

**O'RTA ZARAFSHON VODIYSI KARTOSHKAGA AGROTSENOZLARI
FITONEMATODALARI**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B823 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.izology.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshova Xolisa Saidovna

Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kuchbayev Abduraxim Ergashevich

Biologiya fanlari doktori, professor

Narzullayev Sardor Bahriddinovich

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zoologiya institute huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.52.01 raqamli ilmiy kengashining 2025-yil «29» dekabr kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy. Zoologiya instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 289-04-65, E-mail: zoology@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Zoologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№1732-AP-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100053, Toshkent shahri, Bog'ishamol ko'chasi, 232^b-uy. Tel.: (+99871) 289-04-65.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «17» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «17» dekabrda 11-raqamli reestr bayonnomasi)



B.R.Xolmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

G.S.Mirzayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

A.E.Kuchbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda o'simlik mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha kartoshka bug'doy, makkajo'xori va sholi ekinlari bilan bir qatorda asosiy o'rinni egallaydi. Bugungi kunda aholining ehtiyoji va bozor talablaridan kelib chiqib, kartoshka va sabzavot yetishtirish yildan-yilga o'sib bormoqda. Qishloq xo'jalik ekinlariga xavfli parazitlar ta'siri natijasida sifati va hosildorligi pasayib, o'simlik mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan zarar keltirmoqda. Shunga ko'ra, agrotsenozlardagi fitonematodalarining tur tarkibi, tarqalish xususiyatlari va ekologiyasini kompleks tadqiq etish hamda parazit turlarga qarshi kurash chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Jahon miqyosida qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda zararkunanda va parazitlariga qarshi kurash bo'yicha keng ko'lamli izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada turli biotsenozlarda fitonematodalar faunasining tur tarkibi, turli hududlarda tarqalishi, o'simlik vegetatsiyasi davrida dinamikasi va o'simliklar bilan trofik munosabatlari kabi ekologik xususiyatlarini tahlil qilish, fitonematodalarining agrotsenozlarda tarqalishi, madaniy ekinlarga zarar yetkazadigan parazit turlarni aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish kabi muammolarga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda fitonematodalar faunasining xilma-xilligi, taksonomik tarkibi, turli hududlarda tarqalishi, ularning agrotsenozlardagi tur tarkibi, qishloq xo'jalik ekinlariga zarar keltiruvchi parazit turlari va ularning ahamiyatini aniqlash hamda parazit turlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ «...Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, respublikaning kartoshka va sabzavot mahsulotlari yetishtiruvchi hududlarida, jumladan Samarqand viloyati hududida kartoshka fitonematodalari turlarining xilma-xilligi, ekologiyasi, agrotsenozlarda tarqalishi va ahamiyatini ochib berish hamda parazit turlarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi "Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

dekabrdagi 2544-1-son “Respublikada karantindagi zararkunandalar, o‘simlik kasalliklari va begona o‘tlarning ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘rsida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fitonematodalarining taksonomik tarkibi, faunasi, ekologiyasiga oid tadqiqotlar, shuningdek, kartoshka fitonematodalariga oid tadqiqotlar xorijning yetakchi olimlari I. Andrassy (1969, 1976, 1884), M.R. Siddiqi (1963, 1980, 1988, 2003), B.G. Chitwood (1950, 1958), D.J. Chitwood (2003), G.W. Yeates (1979, 1993), G.W. Yeates va boshq. (2003), K.S. Krishna Prasad (2008), Fabia S.O. Lima, Vanessa S. Mattos va boshq. (2018), Hu, S. Pen-Mouratov, Y. Steinberger (2020), Aarti Bairwa, E. P. Venkatasalam (2022), Isabel Abrantes, M.Teresa Almeida va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida kartoshka fitonematodalari faunasi, ekologiyasi va alohida turlarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatiga oid ma’lumotlar E.L. Krall (1978), Ye.N. Zakabunina (2003), A.A. Shesteporov (2000, 2003), A.A. Shesteporov va boshqalar (2002, 2003), K.O. Butenko (2004), U.M. Matveyeva (2004), L.A. Guskova (2004), I.M. Pimenova (2009), U.A. Kolesova (2010), N.A. Ryabseva (2015), K.K. Djunusov (2016), L.P. Yevstratova va boshqalar (2017), Sh.A. Rasulov (1991), Sh.A. Rasulov, A.R. Gasanov (2018) larning tadqiqot ishlarida aks ettirilgan.

O‘zbekistonda kartoshka fitonematodalari faunasi, ekologiyasi va taksonomiyasiga doir tadqiqotlar A.T. To‘laganov (1949), A.T. To‘laganov, S.M. Karimova (1953), S.M. Karimova (1957), A.T. To‘laganov, A.I. Zemlyanskaya (1962), A.T. To‘laganov, A.Z. Usmanova (1970), L.T. Sheptal (1963, 1966, 1968), A.Z. Usmanova, M.M. Karimova (1972), Z.S. Aylarova, A.Z. Usmanova (1973), M.M. Karimova (1973), S.M. Rizayeva (1974, 1981, 1984) lar tomonidan olib borilgan. Biroq, O‘zbekistonda kartoshka fitonematodalari faunasi tur tarkibi, tarqalishi va ekologiyasi kompleks miqyosda o‘rganilmagan, mavjud ma’lumotlar ancha eskirgan. Yuqorida qayd etilgan ishlarda kartoshkaning bir yoki bir necha parazit turlarini o‘rganishga qaratilgan, shuningdek, kartoshka fitonematodalarini tadqiq qilish borasidagi mavjud ma’lumotlar kartoshka ekinida uchrovchi parazit turlarining hozirgi kundagi holatini batafsil yoritib bera olmaydi.

Shu sababli, kartoshka fitonematodalari faunasining tur tarkibi va taksonomik strukturasini aniqlash hamda parazit turlariga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Zoologiya kafedrasida ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekiston hayvonot olami biologik

xilma-xilligi va uni muhofaza qilish muammolari” (2022-2024) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyati sharoitida kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarini tur tarkibini aniqlash hamda keng tarqalgan parazit turlarga qarshi kurashning profilaktik va agrotexnik chora tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Samarqand viloyati sharoitida kartoshka agrotsenozlarida uchrovchi fitonematodalarining faunasi, taksonomik va ekologik tarkibini aniqlash;

fitonematodalarining hududlar bo'yicha tarqalishini asoslash;

kartoshkaning asosiy rivojlanish fazalarida uchrovchi fitonematodalar faunasi dinamikasini qiyosiy tahlil qilish;

kartoshka agrotsenozlarida keng tarqalgan parazit fitonematoda turlarining tarqalish hududlari bo'yicha xaritalarini yaratish;

parazit nematoda turlarining kartoshka ekinini zararlash darajasini aniqlash va ularga qarshi kurashning profilaktik va agrotexnik chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlarida uchraydigan fitonematodalar olingan.

Tadqiqotning predmetini Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarini faunasi, o'silikning rivojlanish fazalarida uchrovchi turlar, tarqalishi, ekologik xususiyatlari va parazit turlarga qarshi kurash choralari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni amalga oshirishda umumiy qabul qilingan zoologik, ekologik, fitogelmintologik, parazitologik, molekulyar-genetik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarini tur tarkibining zamonaviy holati tahlil qilinib, 125 tur qayd etilgan, shundan 18 tur fitonematodalar Samarqand viloyatida hudud uchun ilk marotaba aniqlangan;

Aphelenchoides avenae va *Meloidogyne incognita* nematoda turlarining ribosomal DNK ning 28S geni D2-D3 fragmenti asosida molekulyar identifikatsiyasi ochib berilgan;

Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarining ekologik xususiyatlari ochib berilgan hamda o'simlikning rivojlanish fazalarida fauna tarkibi tuproqning namligi va haroratiga, o'simlikning vegetatsiya davriga, ekin maydonlarining agrotexnik holatiga bog'liq holda o'zgarishi aniqlangan;

Samarqand viloyatida kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarini faunasining o'zaro o'xshashligi ochib berilgan, o'xshashlik C_s - 0,43 – 0,66 oralig'ida o'zgarishi isbotlangan;

parazit fitonematodalaridan - *Aphelenchoides parietinus*, *Aglenchus agricola*, *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis* larning Samarqand viloyatida tarqalish hududlari bo'yicha GIS xaritalari yaratilgan;

Samarqand viloyati sharoitida kartoshkaning *Meloidogyne* avlodi nematodalarini bilan ilk marotaba zararlanganligi qayd etilgan, zararlantirish kartoshkaning nav xususiyatlari bilan bog'liqligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlarida fitonematodalar faunasi, jumladan parazit turlar aniqlangan, kelgusida parazit turlarning tarqalishi mumkin bo'lgan hududlarni bashorat qilish orqali tarqalishini oldini olish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqilgan;

ayrim parazit fitonematodalarning Samarqand viloyatida tarqalish hududlari bo'yicha xaritalari yaratilgan;

qishloq xo'jalik ekinlariga zarar yetkazadigan parazit fitonematodalariga qarshi tashkiliy-profilaktik va agrotexnik chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan zoologiya va fitogelmintologiya sohalaridagi usullar va yondoshuvlar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, faunistik ma'lumotlarning zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlildan o'tkazilganligi, olingan natijalarning mahalliy va xalqaro nufuzli nashrlarda chop etilganligi hamda ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Samarqand viloyati kartoshka yetishtiradigan hududlardagi agrotsenozlarda tarqalgan fitonematodalari kompleks tahlil qilinib, turlar tarkibi aniqlanganligi, taksonomik va ekologik tuzilmasi tahlil qilinganligi, hududlar bo'yicha tarqalishi, o'simlik vegetatsiya davrida fitonematodalar dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ochib berilganligi hamda hosildorlikni pasayishida alohida turlarning ahamiyatini baholanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, Samarqand viloyati hududlaridagi agrotsenozlarda *Aphelenchoides parietinus*, *Aglenchus agricola*, *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis* turlariga mansub parazit fitonematodalarning tarqalish hududlari bo'yicha xaritalarining yaratilganligi, hosildorlikni pasayishida alohida turlarning ahamiyati baholanganligi, parazit fitonematodalariga qarshi tashkiliy-profilaktik, agrotexnik chora-tadbirlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "O'rta Zarafshon vodiysi kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

fitoparazit nematodalarga qarshi ishlab chiqilgan tashkiliy-profilaktik va agrotexnik kurash tadbirlari bo'yicha amaliy tavsiyalar Samarqand viloyati qishloq xo'jaligi boshqarmasi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 05/06-02-972-son ma'lumotnomasi). Natijada, kartoshka ekinini yetishtirishda agrotexnik talablarga qat'iy rioya etish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda kartoshka hosildorligini 10-15% gacha oshirish imkonini bergan:

Aphelenchoides avenae va *Meloidogyne incognita* turlarining molekulyar-genetik tahlili asosida ribosomal DNK 28S sohasi nukleotidlari ketma-ketligi bo'yicha ma'lumotlari Biotexnologik axborotlar milliy markazi (NCBI) Gen Banki bazasiga joylashtirilgan (Biotexnologik axborotlar milliy markazining 2024-yil 16-oktabrdagi ma'lumotnomasi). Natijada, *Aphelenchoides avenae* turi uchun – PQ685990; *Meloidogyne incognita* turi uchun – PQ456731 inventar raqamlari

olingan va ular xalqaro miqyosda turlarni aniqlash va filogeniyasini o'rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalari chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi va muammoning o'rganilganlik darajasi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti va usullari keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslab berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kartoshka fitonematodalarining o'rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligi va xorijiy mamlakatlarida qishloq xo'jalik ekinlarida, jumladan kartoshkada olimlar tomonidan olib borilgan fitonematodalarga oid sistematik, faunistik, ekologik hamda ahamiyati xususidagi tadqiqotlarning tahlili bayon etilgan.

Ilmiy manbalar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, Samarqand viloyati kartoshka fitonematodalariga oid ma'lumotlar boshqa qishloq xo'jalik ekinlari bilan birga olib borilgan. Biroq, Samarqand viloyati kartoshka fitonematodalarining alohida tur tarkibi va ekologik xususiyatlari tadqiq qilinmaganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga uzoq vaqt mobaynida ushbu hududning nematodafaunasi tashqi omillar ta'sirida o'zgarishga uchragan. Samarqand viloyati kartoshka fitonematodalarining zamonaviy holati, populyasion ko'rsatgichlari, tarqalish hududlari, ularga ekologik omillarning ta'siri, parazit turlari, ularning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlarning deyarli mavjud emasligi ushbu tadqiqot ishining muhimligini belgilaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tadqiqot hududining tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan. Ushbu bobda tadqiqot o'tkazilgan hududning qisqacha tuproq-iqlim sharoiti, yig'ilgan material hajmi va mazkur ishni bajarish jarayonida foydalanilgan usullar to'g'risida ma'lumot berilgan. O'simlik va tuproq namunalari yig'ishda marshrut va statsionar metodlardan, yig'ilgan namunalardan nematodalarni ajratib olish, ularni fiksatsiya qilish, vaqtinchalik va doimiy preparatlar tayyorlash, turlarni aniqlashda

umumiy zoologik, ekologik, fitogelmintologik, parazitologik, molekulyar - genetik va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot ishlari 2022-2025 yillarda Samarqand viloyatining Bulung'ur, Tayloq, Samarqand, Pstdarg'om, Oqdaryo, Nurobod va Paxtachi tumanlaridan kartoshka (*Solanum tuberosum* L.) ekilgan ikkitadan fermer xo'jaligi va shaxsiy xo'jaliklari tanlab olindi. Har bir daladan diagonal marshrut bo'yicha 10 tadan o'simlik va uning atrofidagi tuproq olindi. Dala sharoitida tahlil uchun mo'ljallangan kartoshka o'simligi ildizi bilan kovlab olindi, o'simlik ildizi atrofida tuproqning esa 0 - 20 sm chuqurlik qatlamidan namunalar olindi. Har bir xo'jalikdagi kartoshka ekini dalasidan 60 ta, har qaysi tuman bo'yicha 120 ta, viloyatning ettita tumani bo'yicha 840 ta namuna yig'ildi. Statsionar usulda namunalar Tayloq tumanidan "Mehnat baraka rohat" fermer xo'jaligi tanlandi. Namunalar kartoshkaning asosiy rivojlanish fazalari (unib chiqish, tugunak hosil qilish, gullash, texnik yetilish) da hamda ekin ekishdan oldin va hosil yig'ib olingandan keyin olindi. Har bir fazada 50 ta, to'rtta fazadada 200 ta, ekishdan oldin va hosil yig'ib olingandan keyingi davrlarda 60 ta, osimlikning butun vegetatsiya davrida 260 ta namuna yig'ildi. Jami 1100 ta tuproq va o'simlik namunalari yig'ildi nematodalar uchun tekshiruvdan o'tkazildi. Fitonematodalarning 1060 ta vaqtinchalik va doimiy preparatlari tayyorlandi.

Bo'rtma nematodalar turlarini morfologik belgilari asosida identifikatsiya qilishda voyaga yetgan urg'ochi nematodaning anal teshigi va vulvasi atrofi kutikulasi, ya'ni anal - vulvar plastinkasidagi chiziqlardan foydalanildi (Kiryanova, Krall, 1971). Nematodalar tanasi hujayralaridan DNK molekulasini (genom)ni ajratib olish, DNK tarkibidagi nukleotidlar ketma-ketligini aniqlash va olingan namunadagi nukleotidlar ketma-ketligini xalqaro Genbank bazasidagi ma'lumotlar bilan solishtirish orqali amalga oshirildi. DNK ketma-ketligi reaksiyasi mahsulotlarini kapillyar gel elektroforez orqali lazer induksiya floresan aniqlash bilan ajratish va tahlil qilish Applied Biosystems 3500 Genetic Analyzer (Thermo Fisher Scientific) da amalga oshirildi.

Turlarni aniqlashda De Man (1880) formulasi va Micoletzky (1922) modifikatsiyasi yordamida hisoblab chiqilgan morfometrik ko'rsatkichlardan foydalanildi. Fitonematodalarning o'simlik va tuproq namunalarida dominantlik darajasi turlar va individual foiz holatida (K. Kasprzak, Niedbala, 1981; K.M. Ilieva, 2015) aniqlandi. Samarqand viloyatining tumanlarida kartoshka agrotsenozlari fitonematodalar faunistik komplekslari o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlashda Serensenning o'xshashlik indekslarini aniqlash formulasidan (Y.A.Dunayev, 1997) hamda agrotsenozlarda turlar boyligini baholash uchun Margalef (Y.A.Dunayev, 1997) indeksidan foydalanildi. Material terilgan joy koordinatalari "Maps.me" mobil ilovasi yordamida aniqlandi va ular asosida "ArcGIS 10.8" dasturi orqali turlarning tarqalish xaritasi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **"Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarning taksonomik va ekologik tahlili"** deb nomlangan uchinchi bobida kartoshka agrotsenozlarida aniqlangan fitonematodalar klassifikatsiya qilinib, tadqiqot natijalari keltirilgan.

Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlarida aniqlangan 125 tur Nematoda (Nematodes) tipi 2 ta (Adenophorea, Secernentea) sinf, 4 ta (Enoplia, Chromadoria, Rhabditia, Diplogasteria) kenja sinf, 7 ta (Triplonchida, Dorylaimida, Mononchida, Monhysterida, Araeolaimida, Rhabditida, Tylenchida) turkumga, shuningdek, 31 oila va 53 avlodga mansubligi aniqlangan. Ulardan 18 turi Samarqand viloyati faunasida ilk marotaba qayd etilgan.

Taksonomik tahlilda fitonematoda turlarining turkumlar bo'yicha tarqalishi turli xil bo'lishi ma'lum bo'ldi. Masalan, Triplonchida, Mononchida va Monhysterida turkumlariga 2 tadan tur, Araeolaimida turkumiga 5 tur mansub bo'lsa, fitonematoda faunaning qolgan 114 turi 3 ta turkumga tegishli bo'ldi, ya'ni Dorylaimida turkumiga 19 tur, Rhabditida 40 tur, Tylenchida turkumiga 55 tur mansub bo'ldi.

Tahlil natijasiga ko'ra, kartoshka agrotsenozlarida fitonematodalar turlarining tarqalishida Rhabditida va Tylenchida turkumlari o'z tarkibidagi turlar bo'yicha dominant turkumlar hisoblanadi.

Fauna tarkibida jami 31 ta oilani turlar bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilinganda, Qudsianematidae, Acrobelidae, Aphelenchodidae, Tylenchidae oilalari 10 tadan ko'p turlarni o'z ichiga olib, turlar ko'pligi bo'yicha ustunlik qildi. Dorylaimidae, Cephalobidae, Heteroderidae, Plectidae, Rhabditidae oila vakillarida 4 ta dan 8 ta gacha turlarni o'z ichiga oldi, qolgan boshqa oila vakillarida jami 36 ta tur topildi. Shuningdek, aniqlangan fitonematoda faunasi tarkibida *Eudorylaimus*, *Aphelenchoides*, *Ditylenchus* avlodiga mansub turlar nisbatan keng tarqalganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, fitonematodalarning 2 turi *Aphelenchoides avenae* va *Meloidogyne incognita* larining ribosomal DNKning 28S geni D2–D3 fragmenti asosida molekulyar tahliliga oid ma'lumotlari keltirilgan.


Mazkur bobda aniqlangan fitonematodalar oziqlanishi va hayot tarziga ko'ta, 9 ta ekologik guruhlariga, jumladan: 1) erkin yashovchi tuproq nematodalari yoki bakteriotroflar; 2) nam tuproqda va suvda yashab o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanuvchilar yoki detritofaglar; 3) yirtqich nematodalar; 4) organik chirindi bilan oziqlanuvchilar yoki eusaprobiontlar; 5) o'simliklarning kasallangan qismlari, chiriyotgan o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadigan qurollanmagan devisaprobiontlar; 6) ba'zan o'simlik to'qimasida uchraydigan qurollangan devisaprobiontlar; 7) zamburug' mitselliysi bilan oziqlanuvchilar yoki mikogelmintlar; 8) notipik parazitlar yoki ektoparazitlar; 9) haqiqiy parazitlar yoki endoparazitlarga ajratiladi. Ular orasida pararizobiontlar (28 tur), devisaprobiontlar (37 tur), mikogelmintlar (26 tur) va parazit nematodalar (27 tur) turlar soni bilan dominantlik qilishi ma'lum bo'ldi. Eusaprobiontlar (7 tur) turlar soni kam uchrashi ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari faunasi va dinamikasining qiyosiy tahlili”** deb nomlangan, unda kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari faunasi, ekologik tarkibi, ularning hududlar bo'yicha tarqalishi hamda dimamikasi tahlil etilgan.


Bobning birinchi bo'limida kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari faunasi tahlil etilgan. Tadqiqotlar natijasida o'rganilayotgan har bir hudud

fitonematodalari faunasi ma'lum bir guruhi bilan ajralib turishi aniqlangan. Samarqand viloyatida Bulung'ur tumanida 52 tur 736 individ, Tayloqda 62 tur 624 individ, Samarqanda 59 tur 866 individ, Pastdarg'omda 51 tur 441 individ, Oqdaryoda 44 tur 492 individ, Paxtachida 39 tur 632 individ, Nurobod tumanida 72 tur 1670 individ qayd etilgan. Tumanlar orasida Nurobod, Tayloq va Samarqand tumanlari kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari nisbatan xilma-xil va ko'p sonli hisoblanadi. Bu hududlarda tipik bo'z tuproqlar tarqalgan bo'lib, Tayloq va Nurobod tumanlarida kartoshka dalalarida oldin ham kartoshka ekini ekilgan. Samarqand tumanida oldingi ekin sabzavotlar bo'lgan. Bir ekin turini uzoq muddat ekilishi fitonematodalarning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Paxtachi (39 tur), Oqdaryo (44 tur), Pastdarg'om (51 tur), Bulung'ur (52 tur) tumanlari fitonematodalari nisbatan kam turlarga ega va miqdoriy jihatdan kam sonli agrotsenozlar hisoblanadi. Paxtachi tumani dalalrida qumoq tuproqlar tarqalgan, kartoshkadan oldin palakli ekinlar bo'lgan, Oqdaryo tumanida tipik bo'z tuproqlar bo'lib, oldingi ekin - makkajo'xori, Pastdarg'om tumanida tipik bo'z tuproq (quruq), oldingi ekin g'o'za, Bulung'ur tumanida och bo'z tuproqlar tarqalgan, oldin palakli ekinlar bo'lgan. Turli hududlardagi kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari tur tarkibi va individlari soni bilan farq qilishi tuproqning xususiyati, oldingi ekin turi va agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda izohlanadi.

Bobning ikkinchi bo'limi kartoshka ekinining asosiy rivojlanish fazalarida fitonematodalar faunasi tur tarkibi va individlar soni bo'yicha tarqalishi tahlil etilgan. Tadqiqotlarda tuproq harorati va namligi o'lchab borilgan. Kartoshka vegetatsiyasi davrida 57 tur 4364 individ fitonematodalar aniqlandi. Ekin ekishdan oldin tuproqda fitonematodalarning 25 turi 372 individ qayd etildi. Kartoshka unib chiqish davrida 43 tur 1778 individ qayd etildi. Ushbu bosqichida fitonematodalar o'simlikning boshqa vegetatsiya davrlariga nisbatan xilma-xilligi va miqdor jihatdan ko'pligi bilan ajralib turadi. Tuproq namligi va o'rtacha tuproq harorati nematodalar rivojlanishi uchun qulayligi va o'sayotgan o'simlikning ildiz to'qimalari yumshoqligi nematodalar yaxshi kirib borishi mumkin. Ildizda tugunak hosil bo'lish bosqichida 27 tur 396 individ qayd etildi (1, 2-rasmlar).



1-rasm. Kartoshka ekinining rivojlanish fazalarida fitonematodalar turlari bo'yicha dinamikasi.



2-rasm. Kartoshka ekinining rivojlanish fazalarida fitonematodalar individlari bo'yicha dinamikasi.

Tugunak hosil qilish bosqichida nematoda individlari 3,5 martaga kamayganligi kuzatildi. Bu holat havo va tuproq haroratining oshishi hamda tuproq qatlamlarida namlikning pasayishi bo'lishi mumkin. Shuning bilan birga, bu fazada agrotsenozda begona o'tlarni olib tashlash bilan tuproqni yumshatish tadbirlari amalga oshirilgan. Gullash bosqichida 33 tur 622 individ qayd etildi. Gullash bosqichida fitonematodalar turlar va vakillari sonining ortganligi kuzatiladi. Bu holat kartoshka ekinida sug'orish tadbirlari amalga oshirilganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Texnik yetuklik bosqichida 34 tur 699 individ aniqlandi, fitonematodalarning sifat va miqdori avvalgi fazaga nisbatan deyarli o'zgarmaganligi kuzatildi. Hosil yig'ib olingandan keyin 28 tur 497 individ qayd etildi.

Bobning uchinchi bo'limida kartoshka agrotsenozlari fitonematoda faunasining tumanlar bo'yicha qiyosiy tahlili keltirilgan. Tekshirilayotgan turli hududlardagi kartoshka agrotsenozlari fitonematoda faunasi bir-biridan tur tarkibi va ularning individlari soni bo'yicha farq qilsa, ayrim turlarning umumiyliigi kuzatildi. Viloyatning o'rganilgan barcha hududlarida uchragan turlar - *Eudorylaimus monhystera*, *Cephalobus persegnis*, *Acrobeloides buetschlii*, *Chiloplacus propinquus*, *Ch. symmetricus*, *Cervidelus insubricus*, *Panagrolaimus rigidus*, *Rhabditis brevispina*, *Aphelenchoides avenae*, *Aph. limberi*, *Aph. parietinus*, *Aglenchus agricola*, *Filenchus filiformis*, *Ditylenchus dipsaci* lardan iborat.

Kartoshka agrotsenozlari bir-biridan uzoq joilashganligi sababli har bir agrotsenoz fitonematodalari o'ziga xos faunistik kompleksga ega. O'rganilayotgan hududlardagi kartoshka nematodalari faunistik komplekslari o'rtasida o'xshashlik yoki farqni aniqlash uchun biz Serensen-Chekanovski koefitsiyenti (C_s) formulasidan foidalandik. Natijada, kartoshka nematodasi faunistik komplekslari o'rtasida o'xshashlik eng yuqori Samarqand va Tayloq tumanlari ($C_s = 0,66$), Samarqand va Nurobod tumanlari ($C_s = 0,65$) o'rtasida kuzatildi. Samarqand va Oqdaryo tumanlari ($C_s = 0,58$), Tayloq va Pastdarg'om tumanlari ($C_s = 0,56$) Samarqand va Pastdarg'om tumanlari faunistik komplekslari o'rtasida o'xshashlik

bir muncha pastroq ($C_s = 0,52$). Samarqand va Paxtachi tumanlari ($C_s = 0,43$), Samarqand va Bulung'ur tumanlari ($C_s = 0,46$) faunistik komplekslari o'rtasida o'xshashlik eng kam bo'ldi. O'xshashlik koeffitsiyentlari tahlil qilingan agrotsenozlar fitonematodalari faunistik komplekslarini bir-biridan kam farq qilishi, ular o'xshash tashqi muhit shroiti (tuproq, namlik, o'simlik) ta'sirida va o'zaro bog'langan holda faunani shakllanganligini ko'rsatadi. Shuning uchun bitta turga mansub o'simlik faunistik komplekslarida farq kuzatildi. Turli hududlardagi kartoshka fitonematodalari faunistik komplekslari o'rtasidagi o'xshashlik koeffitsientlarida farqni kam bo'lishi ularni bir xil mintaqada va tuproq tipida hamda iqlim sharoitida shakllanganligi bilan bog'liq holda izohlandi.


Kartoshka agrotsenozlari fitonematoda faunasi Margalef indeksi bo'yicha solishtirilganda turlar xilma-xilligi boyligi Pastdarg'om tumani ($DM_g = 4.1$)da kuzatildi. Ushbu tumanda nematoda turlarining xilma-xilligi, oldingi ekin turi (g'o'za), tuproq xususiyati va boshqalar bilan bog'liq. Xilma-xillik indeksi Tayloq tumanida ($DM_g = 3.6$) o'rtacha bo'lsa, Samarqand va Bulung'ur tumanlarida deyarli bir xil darajada ekanligi ($DM_g = 2.5-2.6$ oralig'ida) ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiyaning "**Kartoshka ekinining parazit fitonematodalari**" deb nomlangan beshinchi bobida kartoshka ekini nematodafaunasida keng tarqalgan ekto va endoparazit nematodalarning anatomo-morfologik va tarqalish xususiyatlari hamda ahamiyati yoritib berilgan.

O'rganilgan turli hududlarda kartoshka ekini parazit turlarning soni va tarkibi bilan ham farq qiladi. Nematodalar sonining farq qilishi bir qancha sabablarga bog'liq. Birinchidan tuproq xususiyatiga bog'liq, Paxtachi tumanida qumoq tuproqlar tarqalgan, qumoq tuproqlar nematodalar yashashi uchun ancha qulay hisoblanadi. Shaxsiy tomorqalarda parazit turlar kop uchradi (Samarqand tumani), sababi shaxsiy uchastkalarda almashlab ekish deyarli amalga oshirilmaydi. Oqdaryo tumanida esa kartoshka ekiniga kamroq ishlov berilgan, hududda begona o't o'simliklarining ko'pligi qayd etildi. Ekinlarga ishlov berish ham nematodalar sonini kamaytiruvchi omillardan biri. Parazit nematodalar faunasining asosiy qismini *Aphelenchoides parietinus*, *Filenchus filiformis*, *Aglenchus agricola*, *Ditylenchus dipsaci*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis* turlari tashkil etadi. Keng tarqalgan parazit fitonematodalardan - *Aglenchus agricola*, *Aphelenchoides parietinus*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Ditylenchus dipsaci*, *Pratylenchus pratensis* turlariga tavsif berilgan va tarqalish hududlari bo'yicha xaritalari yaratilgan.

***Aglenchus agricola* (Andrassy, 1954) Meyl, 1960** nematodasi namunalarimizda 84 nusxa uchratildi. Tanasi ipsimon dum tomonga qarab torayib boradi. Bosh qismi biroz alohidalangan, bu esa boshning halqalari kengligi va trofik-sensor bo'limining o'rtasidagi aniq farqlarni kuchaytiradi. Kutikula xalqali. Yon chetlari to'rtta insizurdan tashkil topgan (ikkita tashqi va ikkita ichki). Tananing o'rta qismidagi kutikulaning halqalari taxminan o'rtacha 1,7 mikronni tashkil qiladi. Erkak va urg'ochi nematodalarning stileti bir xil, zich, uzunligi 10,8 mikronga teng. Stilet boshlari sharsimon. O'rta bulbus qavariq-oval shaklda. Kardial bulbus yaqqol yuraksimon. Qinning devorlari qalinlashgan. Tuxumdon


oligopropagator shaklda. Spermateka ovalsimon. Vulva tananing o'rtasidan orqada joylashgan. Ikkala jinsda dum cho'zilgan-konussimon, o'tkir uchli (3A-rasm).



3-rasm. *Aglenchus agricola* (Andrassy, 1954) Meyl, 1960 tuzilishi (A) va tarqalish hududlari (B). 1-umumiy ko'rinishi; 2-bosh qismi; 3-vulva qismi; 4-dum qismi (asl nusxa).

Namunalarimizda *A. agricola* Samarqand viloyatining Tayloq, Samarqand, Bulung'ur, Pstdarg'om, Paxtachi, Nurobod, Oqdaryo tumanlarida uchradi (3B-rasm).

***Aphelenchoides parietinus* (Bastian, 1865) Steiner, 1936** nematodasi namunalarimizda 151 nusxa uchratildi. Boshi yon tomondan bo'rtgan chetlari bilan va tananing umumiy konturidan yaqqol ajralib turadi. Bosh kapsulaning tayanch skeleti yaxshi rivojlanmagan, uning bazal to'siqlari yupqa. Kutikulasi xalqali (boshidan tashqari). Tananing o'rtasida xalqalarning kengligi 1- 1,3 mikronga teng. Stilet asosi sezilarli qalinlashgan va 11-13 mikronga teng. Metakorpul bulbus ovalsimon, bulbar bo'shlig'ining markaziy qismida joylashgan. Istmus kalta. Nerv xalqasi bulbus orqasida joylashgan, ichakning old qismini va qizilo'ngach bezining yo'lini o'rab olgan. Qizilo'ngach bezlari uzun, tana diametridan to'rt marta ortiq. Tuxumdon cho'zilgan, oligopropagator, dorsal qizilo'ngach bezining bosh qismiga etmaydi. Oositlar bir qatorda joylashgan. Tuxumi uzun, uning o'qi to'rtta tuxum diametriga yetadi. Orqa bachadon uzun, vulva va anus orasidagi masofaning yarmiga teng. Dum konussimon, alohida zich mukroga ega (4A-rasm).




4-rasm. *Aphelenchoides parietinus* (Bastian, 1865) Steiner, 1936 tuzilishi (A) va tarqalish hududlari (B). 1-umumiy ko'rinishi; 2-bosh qismi; 3-vulva qismi; 4-dum qismi (asl nusxa).

Bizning namunalarimizda *A. parietinus* Samarqand viloyatining Samarqand, Tayloq, Bulung'ur, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod, Oqfaryo tumanlarida uchradi (4B-rasm).


***Ditylenchus dipsaci* (Kühn, 1857) Filipjev, 1936** nematodasi namunalarimizda 164 nusxa uchratildi. Nematodaning tanasi nozik, bosh va dum tomonlariga torayib ketgan. Bosh qismi tana konturidan bir oz ajralib turadi va ingichka tayanch skeletga ega. Kutikula ingichka xalqali, kutikula xalqlarining kengligi taxminan 1 mkm. Stiletning yumaloq bazal boshchalari yaxshi rivojlangan, uning uzunligi 11-13 mkm. Prokorporus silindrsimon. O'rta bulbus qavariq-oval shaklda, kardial bulbus o'rta ichakdan aniq chegaralangan. Isthmus tor. Nerv xalqasi yuraksimon bulbusga yaqinroq joylashgan. Chiqaruv teshigi yuraksimon bulbusning o'rta qismiga yaqinroq joylashgan. Tuxum yo'li kalta, yirik tuxumlari rivojlangan. Tuxumning uzunligi 60-65 mikron, diametri 17-19 mikron. Orqa bachadon vulva va anus orasidagi masofaning yarmiga teng. Spikulalar yaxshi rivojlangan. Dum qismi uchi o'tkirlashgan (5A-rasm).

Poya nematodasi deyiladi, nematoda hayotining bir qismini o'simliklarga kirmasdan tuproqda o'tkazadi. Shuning uchun uni ko'pincha tuproqda, ba'zan juda muhim miqdorda topish mumkin. Bizning namunalarimizda *D. dipsaci* Samarqand viloyatining Samarqand, Tayloq, Bulung'ur, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod, Oqdaryo tumanlarida uchradi (5B-rasm).



5-rasm. *Ditylenchus dipsaci* (Kühn, 1857) Filipjev, 1936 tuzilishi (A) va tarqalish hududlari (B). 1-umumiy ko'rinishi; 2-bosh qismi; 3-vulva qismi; 4-dum qismi (asl nusxa).


***Helicotylenchus multicinctus* (Cobb, 1893) Golden, 1956** nematodasi namunalarimizda 131 nusxa uchratildi. Kutikulasi yirik xalqalali. Bosh qismi tanadan aniq ajratilgan bo'lib, ular to'rtta halqadan tashkil topgan. Bosh kapsulaning balandligi uning asosi diametriga teng. Stileti kuchli, uning uzunligi 25-28 mikron. Stiletning bazal boshlari yirik. Qizilo'ngach tilenchoidli. Metakorporal bulbus kichik va oval shaklda. Nerv xalqasi sekretor teshikdan bir oz yuqoriroqda joylashgan. Fazmidlar orqasida dumni qoplaydigan to'rtta uzunlama chiziqli lateral maydonlar mavjud. Urg'ochining reproduktiv tizimi simmetrik juftlashgan. Vulva tana bo'shlig'iga chuqur kirib ketadi. Urg'ochining dumi yumaloq va kalta. Dumning oxirgi qismi individlariga qarab o'zgaradi, mukroga ega (6A-rasm).



6-rasm. *Helicotylenchus multicinctus* (Cobb, 1893) Golden, 1956 tuzilishi (A) va tarqalish hududlari (B). 1-umumiy ko‘rinishi; 2-bosh qismi; 3-vulva qismi; 4-dum qismi (asl nusxa).

Bizning namunalarimizda Samarqand viloyatining Samarqand, Tayloq, Pastdarg‘om, Paxtachi, Nurobod, Oqdaryo tumanlarida uchradi (6B-rasm).

***Pratylenchus pratensis* (de Man, 1880) Filipjev, 1936** nematodasi namunalarimizda 152 ta nusxa uchratildi. Tanasi to‘g‘ri. Kutikula qismi yupqa halqalardan iborat. Yon chetlari to‘rtta insuzura ega. Stilet boshlari aniq ajratilgan. Qizilo‘ngach bezining yo‘li stilet boshchasining asosiga ochiladi. Tuxumdon prodelf, cho‘zinchoq. Orqa bachadon kalta, uning uzunligi vulva sohasidagi tananing diametriga teng. Urg‘ochisining dumi anal diametridan 2,5-3 marta uzunroq, bir oz toraygan. Dumning uchi kuchsiz xalqali. Erkagining dumi silindrsimon, bursal chetlari nozik xalqali. Bursa dumini o‘rab turadi (7A-rasm).





7-rasm. *Pratylenchus pratensis* (de Man, 1880) Filipjev, 1936 tuzilishi (A) va tarqalish hududlari (B). 1-umumiy ko‘rinishi; 2-bosh qismi; 3-vulva qismi; 4-dum qismi (asl nusxa).

Bizning namunalarimizda ushbu tur Samarqand viloyatining Samarqand, Tayloq, Pastdarg‘om, Nurobod, Oqdaryo tumanlarida uchradi (7B-rasm).

Shuningdek, mazkur bobda kartoshka sifati va hosildorligiga ta'sir etuvchi xavfli paraziti hisoblangan ildiz bo‘rtma nematodalariga tavsif berilgan. Tadqiqotlar davomida Samarqand viloyati fermer xo‘jaliklarining kartoshka ekilgan dalalarida *Meloidogyne* avlodiga mansub ikki turi: yeryong‘oq bo‘rtma nematodasi - *Meloidogyne arenaria* va janub bo‘rtma nematodasi - *M. incognita*ga uchrashi qayd etildi. *M. arenaria* Bulung‘ur tumanida, *M. incognita* Oqdaryo tumanida qayd etildi. Bo‘rtma nematodalarning turlarini aniqlashda

urg'ochisirning anal-vulva sohasidan tayyorlangan preparatlardan foydalanildi (8, 9-rasmlar).

	
<p>8-rasm. Yeryong'oq bo'rtma nematodasi - <i>Meloidogyne arenaria</i> (Neal, 1889) Chitwood, 1949 ning anal-vulvar plastinka mikrofotosi: 1-dum qismi; 2-anal qismi; 3-vulva chizig'i. Ok.10x Ob.40</p>	<p>9-rasm. Janub bo'rtma nematodasi - <i>Meloidogyne incognita</i> (Kofoid et White, 1919) Chitwood, 1949 ning anal-vulvar plastinka mikrofotosi: 1-dum qismi; 2-anal qismi; 3-vulva chizig'i. Ok.10x Ob.40</p>

O'rganilgan hududlarda bo'rtma nematodalarining kartoshka ekinini zararlash darajasi turlicha ekanligi qayd etildi. Bulung'ur tumani agrotsenozlarida bo'rtma nematoda bilan zararlantirish ekstensivligi - 13%, Oqdaryo tumani agrotsenozlarida zararlantirish 19%ni tashkil etdi. Kartoshka o'simligi turli navlarining nematoda bilan zararlantirish darajasi jadvalda ko'rsatilgan. Umuman kartoshkaning nematoda bilan zararlantirish darajasi 8,7 - 13,4% ni tashkil etdi. Ildizning zararlantirish darajasi 0,5 - 1,5 ball bo'ldi (jadval).

Bir-biriga yaqin ekilgan kartoshka navlarining nematodalar bilan zararlantirishi farq qiladi, kartoshkaning Arizona navida nematoda bilan zararlantirish qayd etilmadi. Arizona navi tugunaklarida po'stining qalinroq bo'lishi lichinkalarning ildizga kirishini qiyinlashtirishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Jadval

Kartoshka o'simligi turli navlarining nematoda bilan zararlantirishi

Kartoshka navlari	Poya soni jami/zararlanganlar soni	Tugunaklar soni	Zararlangan tugunaklar		Ildizning zararlaniishi (ball)
			soni	%	
Bulung'ur tumani					
Evolution	100/13	550	48	8,7	0,5
Oqdaryo tumani					
Arizona	100/0	490	-	-	-
Evolution	100/19	520	70	13,4	1,5

Samarqand viloyatida kartoshka agrotsenozlarida o'simlik uchun xavfli bo'lgan eng muhim parazit fitonematodalardan *Pratylenchus pratensis*, *Meloidogyne arenaria*, *Ditylenchus dipsaci* larning keng tarqalganligi qayd etildi, ularga qarshi tashkiliy-profilaktik, agrotexnik kurash choralari ishlab chiqildi va tavsiya etildi.

XULOSALAR

“O'rta Zarafshon vodiysi kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalarining kompleks tadqiq qilish natijasida 2 sinf, 4 kenja sinf, 7 turkum, 9 kenja turkum, 9 katta oila, 31 oila, 33 kenja oila, 53 avlodga mansub 125 tur qayd etildi. Jumladan, 18 tur fitonematodalar Samarqand viloyatida hudud uchun ilk marotaba aniqlandi.

2. Aniqlangan fitonematoda turkumlaridan Tylenchida (55 tur) va Rhabditida (40 tur) turkumlari yetakchi o'rinni egallab, jami aniqlangan turlarning 44,0%, 32,0% ni tashkil etdi. Keyingi o'rinni Dorylaimida (19; 15,2%) turkumi egallaydi. Triplonchida (2; 1,6%), Araelaimida (5; 4,0%), Mononchida (2; 1,6%) va Monhysterida (2; 1,6%) turkumlarining kam uchrashi kuzatildi.

3. Aniqlangan fitonematodalar ekologik guruhlariga ko'ra, pararizobiontlar – 28 tur (bakteriotroflar – 18 tur, detritofaglar – 5 tur, yirtqichlar – 5 tur), eusaprobiontlar – 7 tur, devisaprobiontlar – 37 tur (qurollanmagan devisaprobiontlar – 15 tur, qurollangan devisaprobiontlar – 22 tur), mikogelmintlar – 25 tur, haqiqiy parazitlar – 27 tur (ektoparazitlar – 23 tur, endoparazitlar – 4 tur)ga ajratildi.

4. Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari fitonematodalari faunasi tur tarkibi bilan farq qiladi. Nurobod (73 tur), Tayloq (62 tur) va Samarqand (59 tur) tumanlari fitonematodalari faunasi turlar xilma-xilligi bo'yicha ustunlik qildi, Bulung'ur (52 tur), Pastdarg'om (51 tur), Oqdaryo (44 tur) va Paxtachi (39 tur) tumanlarida turlar nisbatan kam kuzatildi. Bu farq o'rganilgan hududlarning tuproq xususiyati, oldingi ekin turi va ekinlarga beriladigan agrotexnik tadbirlar darajasiga bog'liq holda izohlanadi.

5. Turli hududlardagi kartoshka fitonematodalari faunasining o'xshashlik darajasi aniqlandi, unga ko'ra, Samarqand va Tayloq tumanlari nematodalari faunalari eng yuqori o'xshashlikka ega ($C_s = 0,66$), Samarqand va Pastdarg'om tumanlari faunalari bir muncha pastroq o'xshashlikka ega ($C_s = 0,58$). O'xshashlik indekslarining eng past qiymatlari Samarqand va Paxtachi tumanlari faunalari uchun xos ($C_s = 0,42$).

6. Kartoshka ekini asosiy rivojlanish fazalari bo'yicha fitonematodalar faunasi dinamikasini o'rganish natijasida, eng ko'p tur va indibidlar o'simlik unib chiqish bosqichida (I bosqich) qayd etilgan bo'lsa, keyingi ko'tarilish gullash bosqichida (III bosqich) kuzatildi. Ekin ekishdan oldin va hosil yig'ib olingandan keyin davrda tuproqdagi fitonematodalar faunasi solishtirganda, hosil yig'ib olingandan keyin fitonematodalar sonining ortishi kuzatildi.

7. Samarqand viloyati kartoshka agrotsenozlari parazit fitonematodalari faunasining asosiy qismini *Aphelenchoides parietinus*, *Filenchus filiformis*, *Aglenchus agricola*, *Bitylenchus dubius*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Pratylenchus pratensis*, *Ditylenchus dipsaci* va *Meloidogyne incognita* turlari tashkil etadi.

8. Keng tarqalgan parazit nematodalardan - *Aglenchus agricola*, *Aphelenchoides parietinus*, *Helicotylenchus multicinctus*, *Ditylenchus dipsaci*, *Pratylenchus pratensis* larning tarqalish hududlari bo'yicha xaritalari yaratildi.

9. Samarqand viloyati sharoitida kartoshkaning *Meloidogyne* avlodi nematodalari bilan ilk marotaba zararlanganligi qayd etildi, zararlanish kartoshkaning nav xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, tugunaklarning po'sti qalin bo'lgan navning zararlanmaganligi, po'sti yupqa, eti yumshoq bo'lgan navning zararlanganligi aniqlandi. Kartoshka tugunaklarining zararlanish darajasi 8,7 - 13,4% ni, ildizning zararlanish darajasi 0,5 - 1,5 ballni tashkil etdi.

10. Kartoshka agrotsenozlarida uning sifati va hosildorligiga ta'sir etuvchi *Pratylenchus*, *Ditylenchus*, *Meloidogyne* avlodlariga mansub parazit fitonematodalari mavjudligi sababli, o'rganilgan hududlarda kartoshka va boshqa madaniy o'simliklarda kelgusida bu avlod nematodalarining tarqalishi va ular bilan zararlanishi mumkinligini ko'rsatadi, buning uchun ularga qarshi tashkiliy-profilaktik, agrotexnik chora tadbirlari ishlab chiqildi va xo'jaliklarga tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.12.2019.B.52.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ЗООЛОГИИ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

НАРЗИКУЛОВА МАШХУРА ФАРХОД ҚИЗИ

**ФИТОНЕМАТОДЫ КАРТОФЕЛЬНЫХ АГРОЦЕНОЗОВ СРЕДНЕ-
ЗАРАФШАНСКОЙ ДОЛИНЫ**

03.00.06 – Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по биологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.3.PhD/B823.

Диссертационная работа выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.zoology.uz) и в Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Эшова Холиса Саидовна
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кучбаев Абдурахим Эргашевич
доктор биологических наук, профессор

Нарзуллаев Сардор Бахриддинович
доктор философии по биологическим наукам,
доцент

Ведущая организация:


**Национальный педагогический
университет Узбекистана имени Низами**


Защита диссертации состоится «29» декабря 2025 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.52.01 при Институте зоологии в зале заседаний института (Адрес: 100053, г.Ташкент, ул. Богишамол, дом 232^б. Тел.: (+99871) 289-04-65, E-mail: zoology@academy.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института зоологии (зарегистрировано за №1732). Адрес: 100053, г.Ташкент, ул. Богишамол, дом 232^б. Тел.: (+99871) 289-04-65. E-mail: zoology@academy.uz).

Автореферат диссертации разослан «17» декабря 2025 года.
(реестр протокола рассылки №11 от «17» декабря 2025 года).




Б.Р. Холматов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор,


Г.С. Мирзаева
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.б.н., профессор


А.Э. Кучбаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом производстве растительной продукции картофель занимает одно из ведущих мест наряду с пшеницей, кукурузой и рисом. В настоящее время, исходя из потребностей населения и рыночного спроса, выращивание картофеля и овощей ежегодно возрастает. Однако воздействие опасных паразитов на сельскохозяйственные культуры приводит к снижению их качества и урожайности, нанося тем самым экономический ущерб хозяйствам, занимающимся производством растительной продукции. В связи с этим комплексное изучение видового состава, особенностей распространения и экологии фитонематод в агроценозах, а также разработка мер борьбы с паразитирующими видами имеет важное научное и практическое значение.

Во всём мире ведутся масштабные исследования, направленные на борьбу с вредителями и паразитами сельскохозяйственных культур. В этом направлении особое внимание уделяется анализу экологических особенностей фитонематод в различных биоценозах, включая их видовой состав, распространение в разных регионах, динамику в период вегетации растений и трофические взаимоотношения с ними. Также исследуется распространение фитонематод в агроценозах, выявляются паразитические виды, наносящие ущерб культурным растениям, и разрабатываются меры по борьбе с ними.

В Узбекистане достигнуты определённые результаты в изучении разнообразия фауны фитонематод, их таксономического состава, распространения в различных регионах, видового состава в агроценозах, выявления паразитических видов, наносящих ущерб сельскохозяйственным культурам, а также в разработке мер борьбы с ними. В Стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы предусмотрены задачи по «...научно-обоснованному интенсивному развитию сельского хозяйства»¹. Исходя из указанных задач, одним из актуальных направлений является изучение разнообразия видов, экологии, распространения и значения фитонематод картофеля в агроценозах регионов республики, выращивающих картофель и овощную продукцию, в том числе на территории Самаркандской области, а также разработка мер борьбы с паразитическими видами.

